



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
texnologiya fani o'qutuvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yiliga 7-sinf
o'g'il bollar uchun III chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf texnologiya fanidan o‘g‘il bolalar uchun
III chorak taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Metallarga badiiy ishlov berish texnologiyasi. (Chorak davomida bajariladigan loyiha ishi mavzusi va baholash mezonlarini e‘lon qilish)	1		
2.	Amaliy mashg‘ulot. Metallarga kandakorlik usulida ishlov berish texnologiyasi	1		
3.	Metall materiallarni rezbali biriktirish texnologiyasi.	1		
4.	Amaliy mashg‘ulot. Oyoq kiyimlar uchun taglik yasash.	1		
5.	Oq sement. Oq sementning tarkibi va xossalari	1		
6.	Oq sement. Oq sementning tarkibi va xossalari	1		
7.	Amaliy mashg‘ulot. Oq sementdan dekorativ gul tuvak yasash	1		
8.	Amaliy mashg‘ulot. Oq sementdan dekorativ gul tuvak yasash	1		
9.	Kavsharlash va kavsharlash asosida buyumlar yasash.	1		
10.	Kavsharlash va kavsharlash asosida buyumlar yasash.	1		
11.	Amaliy mashg‘ulot. Kavsharlash ishlarini o‘rganish.	1		
12.	Amaliy mashg‘ulot. Kavsharlash ishlarini o‘rganish.	1		
13.	Amaliy mashg‘ulot. Devor ichidagi elektr o‘tkazgichlarni aniqlaydigan indikator yasash	1		
14.	Amaliy mashg‘ulot. Devor ichidagi elektr o‘tkazgichlarni aniqlaydigan indikator yasash	1		
15.	Fotorezistor va uning imkoniyatlari.	1		
16.	Fotorezistor va uning imkoniyatlari.	1		
17.	Amaliy mashg‘ulot. Fotorezistor bilan tanishish.	1		
18.	Nazorat ishi	1		
19.	Loyiha ishi: Aqlli yoritgich yasash.	1		
20.	Loyiha ishi: Aqlli yoritgich yasash.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Metallarga badiiy ishlov berish texnologiyasi.

(Chorak davomida bajariladigan loyiha ishi mavzusi va baholash mezonlarini e’lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada mustahkamlash, qo‘l choklari haqida tushuncha berish, oddiy qo‘l choklari turlarini o‘rgatish, amaliy mashg‘ulot orqali tikish ko‘nikmasini shakllantirish, robototexnika elementlari yordamida esa aqlli texnika va texnologiyalarni o‘z qo‘llari bilan yasashni o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, unga erishish uchun nimalarga e’tibor berish kerakligini tushuntirish, ishlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarishga o‘rgatish. Xalqimizning boy ma’naviy qadriyatlarini asosida ta’lim-tarbiya berish, axloqiy tushunchalarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: astoydil harakat, mashaqqatlarni yengishga bo‘lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g‘ayrat-shijoat, o‘z qobiliyatlarini namoyon eta olish, buyuk kelajakni yaratuvchi, yangi texnologiyalarni hayot amaliyotiga tatbiq etuvchi va mamlakatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shuvchi shax sifatida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1.FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2.FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

3.FK3-To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan’aviy, ananaviy.

Dars uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I.Tashkiliy qism: salomlashish yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish, dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolarni hozirlash.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

III. Darsning borishi:

Materiallarga badiiy ishlov berish o‘zida badiiy va texnologik sohalarni birlashtiradi. Badiiy ishlov berish texnologiyasi buyumning tashqi ko‘rinishini chiroyli va takrorlanmas, o‘ziga xos qilishni nazarda tutadi. Bunda tayyorlangan buyumlar o‘z funksional vazifalarini bajaribgina qolmay,


insonga estetik zavq bag'ishlaydi hamda ijodkorlikka qiziqish uyg'otadi. Metallarga badiiy ishlov berishning bolg'alash, quyish, simdan bezak buyumlari yasash, folgada bosma tasvir ishlash, kandakorlik kabi turlari mavjud. Simdan bezak buyumlar tayyorlash texnologiyasi Sim ishlov berish oson bo'lgan material bo'lganligi uchun undan turli shakldagi bezak buyumlarni yasash mumkin (66-rasm). Buning uchun dastlab qog'ozga yasaluvchi buyum eskizi chizib olinadi. So'ngra sim va kerakli asbob-uskunalar tayyorlanadi. Kichik hajmdagi bezak buyumlarni yasash uchun diametri 1–3 mm li mis yoki po'lat simlar qo'llaniladi. Plastmassa izolyatsiya qoplangan turli rangdagi simlardan ham foydalanish mumkin. Simlar bilan ishlashda bolg'a, yog'och bolg'a, yassi, dumaloq va o'tkir jag'li omburlar, shtangensirkul, tiski, kavsharlagich kabi asbob-uskunalar kerak bo'ladi.



66-rasm. Simdan tayyorlangan bezak buyumlari

Folgada bosma tasvir hosil qilish texnologiyasi

Folgada bosma tasvir ishlash bosim beruvchi asboblarda yordamida bo'rtma tasvir hosil qilish texnologiyasi hisoblanadi. Folganing yumshoqligi hamda plastikligi unda oddiy asboblarda yordamida bo'rtma tasvir hosil qilish imkoniyatini beradi. Buning uchun dastlab ish doskasi tanlab olinadi. Doskaning o'lchamlari hosil qilinadigan buyum o'lchamlariga mos kelishi lozim. Doskaning bir tomoniga qalinroq material (teri, linoleum va h. k.) qoplanadi, ikkinchi tomoni esa yaxshilab pardoatlanadi. Kontur chiziqlar to'mtoq bigizlar bilan chiziladi (67-rasm, a). Bigizning yaxshi sayqallangan ishchi qismi folgani tirnamasdan silliq iz qoldirishi kerak. Tasvir katta bo'rtmalarini hosil qilish uchun bosim bilan ishlov beruvchi yog'och asboblardan (67-rasm, b) foydalaniladi. Ular eman, qora qayin, olma, chinor kabi daraxt yog'ochlaridan tayyorlanadi va yaxshilab pardoatlanadi hamda ular ishchi qismlariga



folgada yaxshi sirpanishi uchun parafin va mum surtiladi. 67-rasm. Folgada bosma tasvir ishlash uchun kerakli asbob-uskunalar: a) to'mtoq

bigiz; b) bosim bilan ishlov beruvchi yog'och asbob; d) bosim bilan ishlov beruvchi metall asbob; e) shtampiklar; f) g'ildirakli asbob.

Takrorlanadigan bo'rtma naqshlarni hosil qilishda shtampiklar (67-rasm, e), uzluksiz yoki punktir chiziqlarni hosil qilishda esa g'ildirakli asboblarda (67-rasm, f) ishlatiladi (68-rasm).



68-rasm. Folgada bosma tasvir ishlash texnologiyasi asosida yasalgan buyumlar

Kandakorlik

O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir (69-rasm). Kandakorlik – o‘ymakorlikning metall buyumlar sirtiga o‘yib va chizib, naqsh va tasvir ishlash sohasi. O‘zbekiston hududida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san’at bo‘lib, ular orasida kandakorlik o‘zining qadimiyligi bilan ajralib turadi.



69-rasm. Kandakorlik namunalari



70-rasm.

Kandakorlik ish jarayoni

Kandakorlikda mis, latun, alyuminiy, zanglamaydigan yumshoq po‘lat, melxior kabi metallarga naqsh va tasvir ishlanadi. Bunda po‘latdan yasalgan qalam – xilma-xil naqsh va tasvirni zarb bilan o‘yuvchi asbob asosiy kandakorlik asbobi hisoblanadi. Bu qalam tik holatda emas, balki sal egilgan holatda barmoqlar bilan ushlanadi (70-rasm). Bolg‘a bilan zarb berilganda, qalam oldinga siljiydi. Ikkinchi qo‘l bilan esa bolg‘a yordamida zarb beriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Metallga ishlov berishning qanday turlarini bilasiz?
2. Metallarga badiiy ishlov berish nima uchun kerak?
3. Simlardan badiiy bezak yasash jarayonini tushuntiring..

V. Baholash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Amaliy mashg'ulot. Metallarga kandakorlik usulida ishlov berish texnologiyasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlash, qo'l choklari haqida tushuncha berish, oddiy qo'l choklari turlarini o'rgatish, amaliy mashg'ulot orqali tikish ko'nikmasini shakllantirish, robototexnika elementlari yordamida esa aqlli texnika va texnologiyalarni o'z qo'llari bilan yasashni o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, unga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirish, ishlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarishga o'rgatish. Xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlarini asosida ta'lim-tarbiya berish, axloqiy tushunchalarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: astoydil harakat, mashaqqatlarni yengishga bo'lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g'ayrat-shijoat, o'z qobiliyatlarini namoyon eta olish, buyuk kelajakni yaratuvchi, yangi texnologiyalarni hayot amaliyotiga tatbiq etuvchi va mamlakatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shuvchi shax sifatida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

1.FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2.FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyasi.

3.FK3-To'g'ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

Dars uslubi: tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish, dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolarni hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.







III. Darsning borishi:

Metallarga kandakorlik usulida ishlov berish texnologiyasi

Ishning maqsadi: metallarga kandakorlik usulida ishlov berish texnologiyasi asosida buyum yasashni o'rganish. Jihozlar: xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha yo'riqnoma, texnologik xarita, bosim bilan ishlov beruvchi asboblari, qaychi, masshtabli chizg'ich, yupqa list metall, karton, naqsh

yoki tasvir tushirilgan qog'oz. Ishni bajarish tartibi: kandakorlik usulida buyum yasash berilgan texnologik xarita asosida amalga oshiriladi.

Buyum yasashning TEKNOLOGIK XARITASI

T/r	Ish ketma-ketligi	Ish eskizi (yoki texnik rasm)	Asboblari		Jihoz va moslamalar
			o'lchov va rejalash	ish	
1.	Yupqa list metall tekislanadi va unga tasvir tushirilgan qog'oz o'rnatiladi.		masshtabli chizg'ich, qalam	qaychi, pichoq	chilangarlik dastgohi, rezina taglik, skotch
2.	Bosim beruvchi asbob yordamida tasvirning kontur chiziqlari chizib chiqiladi.		–	bosim beruvchi asbob	chilangarlik dastgohi, rezina taglik
3.	Yupqa list metall orqa tomoniga o'girilib, bosim berish orqali bo'rtma tasvirlar hosil qilinadi.		–	bosim beruvchi asbob	chilangarlik dastgohi, rezina taglik
4.	Bo'rtma tasvir yaxshi ko'rinishi uchun asosga kandakorlik usulida ishlov beriladi.		–	bosim beruvchi asbob	chilangarlik dastgohi, rezina taglik
5.	Hosil bo'lgan tasvirga o'tkir uchli asbob bilan yakuniy ishlov beriladi. O'tkir uchli asbob sifatida ruchkadan foydalanish mumkin.		–	o'tkir uchli asbob	chilangarlik dastgohi, rezina taglik
6.	Hosil bo'lgan tasvir ramkaga o'rnatiladi.		masshtabli chizg'ich, qalam	qaychi, pichoq	chilangarlik dastgohi, rezina taglik, yelim

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Folgada bosma tasvir ishlash bosqichlarini tushuntiring.
2. Kandakorlik amaliy bezak san'ati haqida ma'lumot bering.

V. Baholash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifa: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

42 listdan iborat texnologiya fanidan 7-sinf o'g'il bolalar uchun III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**